

Kelajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida sun'iy intellektdan samarali foydalanish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida

Buxalichaxon Farxodjon qizi Sobirjanova

buxolichas@gmail.com

NamDPI

Annotatsiya: Ushbu maqolada kelajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida sun'iy intellektdan samarali foydalanish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Hozirgi 21-asr texnologiyalar asrida sun'iy intellekt hayotimizning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari ta'lim tizimiga tobora chuqur kirib borar ekan, pedagoglarning zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Agar biz kelajakdagi o'qituvchilarni faqat dars o'tishga emas, zamonaviy texnologiyalardan mas'uliyat bilan foydalanishga o'rgatsak ular zamonaviy, raqamli dunyoga tayyor, ilg'or fikrlovchi pedagog bo'la oladi. Buni amaliyotga tadbqiq etish o'qituvchining kasbiy o'zligini, axloqiy mas'uliyatini va texnologiyalarga teng kirish imkonini ta'minlash muammolarini keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqotda esa bu jarayondagi ijtimoiy-pedagogik muammolarni jumladan, axloqiy mas'uliyat, texnologiyadan to'g'ri foydalanish, bilimni baholashdagi adolat kabilar yoritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, muammo, ijtimoiy-pedagogik, samarali, kelajak o'qituvchisi, texnologiya, aqliy, qobiliyat, 21-asr, raqamli, pedagog, amaliyot

Effective use of artificial intelligence in the process of training future teachers as a socio-pedagogical problem

Bukhalichaxon Farkhodjon kizi Sobirjanova

buxolichas@gmail.com

NamSPI

Abstract: This article analyzes the effective use of artificial intelligence in the process of training future teachers as a socio-pedagogical problem. In the current 21st century, artificial intelligence has become an integral part of our lives. As digital technologies and artificial intelligence tools increasingly penetrate the education system, the level of mastery of modern technologies by teachers is becoming increasingly important. If we teach future teachers not only to teach, but also to use modern technologies responsibly, they will be able to become progressive educators

who are ready for the modern, digital world. Putting this into practice raises the problems of the teacher's professional identity, moral responsibility, and ensuring equal access to technology. This study highlights the socio-pedagogical problems in this process, including moral responsibility, the correct use of technology, and fairness in assessing knowledge.

Keywords: artificial intelligence, problem, social-pedagogical, effective, future teacher, technology, intellectual, ability, 21st century, digital, pedagogue, practice

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimimizni sun'iy intellekt texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda sun'iy intellekt nafaqat ishlab chiqarish va iqtisodiyotda, balki ta'lim jarayonini tashkil etishda ham yetakchi komponentga aylanmoqda. Shunday sharoitda kelajak o'qituvchilarini faqat fan bilimlariga ega mutaxassis sifatida emas, balki sun'iy intellekt bilan uyg'un ishlay oladigan ijtimoiy shaxs sifatida tayyorlash zarurati yuzaga kelmoqda. Ko'plab tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnik innovatsiya sifatida baholangan bo'lsa-da, uning pedagogik ongga ko'rsatadigan ta'siri kam o'rganilgan. Aslida esa, bu jarayon shaxs rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'limga yangi ijtimoiy paradigmalarni olib kiradi. Shu sababli sun'iy intellektdan foydalanish masalasiga texnik emas, balki ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida qarash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Kelajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt (SI)dan foydalanish masalasi oxirgi yillarda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. Xayrullayeva G. (2024) ta'kidlaganidek, pedagogik jarayonda SI vositalari interaktiv va individualizatsiyalashgan o'quv muhiti yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish orqali kelajak o'qituvchilarining professional tayyorgarligi sezilarli darajada yaxshilanadi. Jo'rayev N. (2025) esa o'qituvchi tayyorlash jarayonida SI vositalarining pedagogik integratsiyasi va metodik qo'llanilishining ahamiyatini yoritadi. U tadqiqotlar orqali mas'uliyat bilan tatbiq etilgan SI texnologiyalari kelajak o'qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Sheroy Abduev (2023) va Ikromov X. (2023)ning tadqiqotlari SI vositalarining pedagogik jarayondagi samaradorligi, o'qituvchi kompetensiyasini oshirish va individual ta'limni rivojlantirishdagi rolini yoritadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv va individualizatsiyalashgan o'quv jarayonlarini yaratish kelajak o'qituvchilarining professional va ijtimoiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

- Nazariy tahlil - sun'iy intellektning pedagogik konsepsiyalarga ta'siri tahlil qilindi.

- Pedagogik kuzatuv - oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim jarayonlari o'rganildi.

- Qiyosiy tahlil - an'anaviy va raqamli ta'lim modellari solishtirildi.
- So'rovnoma - talabalarining sun'iy intellektga munosabati o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida 120 nafar pedagogika yo'nalishi talabalarining fikrlari tahlil qilindi.

Natijalar. Tahlillar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

- Talabalarining 72 foizi sun'iy intellekt bilan ishlashga tayyor emasligini bildirgan.

- 61 foiz respondent uni bilim vositasi deb baholagan, ammo tarbiyaviy imkoniyatini anglamagan.

- 19 foiz talaba sun'iy intellektni o'qituvchi o'rnini bosuvchi tizim deb hisoblagan.

- 68 foiz talaba maxsus pedagogik tayyorgarlik zarurligini ta'kidlagan.

- 74 foiz respondent axloqiy muammolar mavjudligini qayd etgan.

Tadqiqot natijasida aniq bo'ldiki, sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun faqat texnik bilimlar yetarli emas, balki pedagogik tafakkur va ijtimoiy mas'uliyat ham shakllangan bo'lishi lozim.

Muhokama. Sun'iy intellekt pedagogik faoliyatni avtomatlashtirishi mumkin, biroq pedagog shaxsini almashtira olmaydi. Chunki tarbiya - algoritm emas, insoniy munosabatlarga asoslangan jarayondir. Shu bois pedagog tayyorlash tizimida faqat texnologik ko'nikma emas, balki ijtimoiy ong, axloqiy qarashlar va milliy qadriyatlarni shakllantirish muhimdir.

Sun'iy intellektdan noto'g'ri foydalanish quyidagi xavflarni keltirib chiqaradi:

- o'qituvchi shaxsining ahamiyati pasayishi
- mustaqil fikrlashning susayishi
- ijtimoiy begonalashuv
- plagiatning kuchayishi
- pedagogik mas'uliyatning kamayishi

To'g'ri yo'naltirilgan sun'iy intellekt esa:

- individual yondashuvni kuchaytiradi
- pedagogga yuklamani kamaytiradi
- o'quv jarayonini aniq tahlil qiladi
- ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi

Xulosa. Kelajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt ta'limni har bir o'quvchiga moslash va interaktiv qilish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SI vositalarini to'g'ri ishlatish kelajak o'qituvchilarining malakasini oshiradi, pedagogik metodlarni yaxshilashga yordam beradi va o'quvchilarning

ehtiyojlarini samarali qondirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, o'qituvchilar SI yordamida ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xayrullayeva, G. (2024). Sun'iy intellekt va adabiy ta'lim. Worldly Journals.
2. Jo'rayev, N. (2025). Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik asoslari. Journalss.
3. Sheroz Abduyev. (2023). Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri. Maktabgacha va maktab talimi jurnali.
4. Ikromov, X. (2023). Pedagogika yo'nalishi talabalari baholashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish.
5. Roziqova, M. O. Q., & Hikmatillayeva, N. A. Q. (2025). Idrok jarayonining individual farqlari va ularni o'rganishning psixologik asoslari. Science and Education, 6(12), 606-610.
6. Roziqova, M. O. Q., & Xasanboyeva, G. (2025). Bolalar psixologiyasi va shaxs rivojlanish bosqichlari. Science and Education, 6(12), 595-599.
7. Rozioqva, M. O. Q., & Islomjonova, M. R. S. Q. (2025). Rivojlanishda muammolari bo'lgan ilk yoshdagi bolalarning psizologik-pedagogik xususiyatlari. Science and Education, 6(12), 707-712.